








Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchilarga umumta’lim maktablarda kotiba ajratish tartibi


Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor ustozlarga umumta’lim maktablarda kotiba ajratish tartibi haqida bilib olasan.
	**Umumta’lim maktablar** – bu o‘quvchilar 11 yil o‘qitiladigan maktablar.
	Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasiga ko‘ra, ko‘zi ojiz ustozlarga yordamchi ajratiladi.
	**Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** – dunyodagi hamma insonlar: • tinch • xavfsiz • huquqlari himoyalangan holda yashashiga yordam beradigan tashkilot.

	**Konvensiya** – bu nogironligi bor insonlarning huquqlarini ta’minlaydigan hujjat.
	“Ta’lim to‘g‘risidagi”gi qonunga ko‘ra: ● sen institut yoki universitetning magistratura bosqichini tugatsang, o‘qigan yo‘nalishing bo‘yicha o‘qituvchi bo‘lib ishlashing mumkin.
	**Universitet** – bu sen maktabni tugatganingdan keyin biror kasbni egallash uchun o‘qiydigan joy.
	Magistratura – bu sen universitetda 4 yil o‘qiganingdan keyin yana 2 yil qo‘shimcha o‘qib yuqori darajali diplom olishing.
	Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchilarga yordamchi kotibalarni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ajratadi.
	Bitta maktabda **2 ta** ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchilarga **1 ta yordamchi kotiba** beriladi.

	Maktabda **1 ta** ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchi ishlasa ham **1 ta yordamchi kotiba** beriladi.
	Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchi maktabga **ishga kirayotgan vaqtida** maktab direktoriga kotiba berishni so‘rab **ariza yozishi kerak**.
	**Yordamchi kotibaning vazifasi –** ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchiga dars o‘tishda qonunga ko‘ra yordam berish.
	Yordamchi kotibaning vazifasi: ● senga yillik ish rejasi, dars jadvali bo‘yicha ishlashingga yordam beradi ● sen bilan birga darsda qatnashadi ● dars jarayonida o‘quvchilar kelgan, kelmaganini belgilaydi ● sinf jurnaliga sen aytgan mavzularni yozadi ● sen o‘quvchiga qo‘ygan baholaringni jurnalga qo‘yadi ● senga darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tishiga yordam beradi ● senga imtihonlar o‘tkazishda yordam beradi.

	Maktabda darslar har xil xonalarda bo‘lsa yordamchi kotiba ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchini **bir xonadan boshqa xonaga olib borishi** zarur.
	Yordamchi kotibalarga maktab rahbarlari qo‘shimcha ish topshirsa kotibaning **ishlash huquqi** buziladi.
	Kotibaning **ishlash huquqini** maktab rahbari **buzsa, tuman xalq ta’limi rahbariga** ariza bilan murojaat qilish kerak.
	Yordamchi kotiba: ● kamida o‘rta maxsus diplomli (11 yillik maktab, kollej, litseyni tugatgan) ● yoki oliy diplomli (universitetni tugatgan) bo‘lishi kerak.
	Maktab direktori zaif ko‘ruvchi o‘qituvchiga “o‘zingni-o‘zing eplay olasan” deb yordamchi kotiba bermasligi mumkin.

	Zaif ko‘ruvchi o‘qituvchi daftar, jurnallardagi yozuvlarni o‘qiy olmasligi, bahoni jurnalga qo‘ya olmasligi mumkin.
	Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchiga yordamchi kotiba berishni maktab direktori rad qilsa: ● tuman yoki shahar xalq ta’limi bo‘limiga ariza bilan murojaat qilishing zarur.
	**Tuman** yoki **shahar xalq ta’limi k**o‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchiga yordamchi kotiba berishni rad qilsa, **Bandlik vazirligiga** yoki **sudga murojaat** qilish kerak.
	Ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor o‘qituvchiga yordamchi kotiba berilmasa: ● ishlash uchun shifokor ya’ni tibbiy ijtimoiy ekspertizaning ruxsatnomasi ● Xalq ta’limi vazirligining 2019-yil 28-dekabrdagi 406-sonli buyrug‘i ● shahar moliya bo‘limi yoki Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yozma ariza bilan murojaat qilish mumkin.

	Yordamchi kotiba berishni Iqtisodiyot va **Moliya vazirligi** rad qilsa, **Adliya vazirligiga** yoki Prezidentning internet qabulxonasi **(portalga) my.gov.uz**ga murojaat qilish kerak.
	Zaif ko‘ruvchi o‘qituvchi universitetda ishlasa unga kotiba berish qonunda belgilanmagan.
	Universitetlarda yordamchi kotiba Zaif ko‘ruvchi o‘qituvchiga dars vaqtida: ● talabalarni nazorat qilishda ● dars o‘tishga yordamlashishda ● yoki imtihonlarni tashkil qilishda kerak bo‘ladi.
	Zaif ko‘ruvchi o‘qituvchi universitetda yordamchi kotiba berishlarini so‘rab: ● Fan, ta’lim va innovatsiyalar vazirligiga murojaat xati bilan chiqishi mumkin.